

BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH HOLATLARI.

Muhammadova Dilafruz Axmatovna

Osiyo xalqaro universiteti

dilafruzmuhammedova053@mail.com

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak fizika o'qituvchilarining kreativ kompetentliklarini rivojlantirish jarayonidagi mavjud muammolar, ta'lim dasturlari, metodik yondoshuvlar va o'qitish texnologiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun ta'lim jarayoniga kiritilishi mumkin bo'lgan innovatsion usullar va amaliyotlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning natijalari bo'lajak fizika o'qituvchilarining kompetentliklarini yanada oshirishga yo'naltirilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: Kreativ kompetentlik, pedagogik innovatsiya, pedagogik ta'lim, pedagogik metodologiya, innovatsion yondashuv, innovatsion metodlar, interaktiv yondashuv.

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlanishi, o'qituvchining yangicha, original va innovatsion yondashuvlarni o'quvchilarga yetkazish qobiliyatiga ega bo'lishini anglatadi. Kreativ kompetentlik, asosan, o'qituvchining muammolarni hal qilishda yangi usullarni ishlab chiqish, o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish va darslarni qiziqarli va samarali qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu kompetentlik, ayniqsa, fizika kabi mantiqiy va ilmiy fanlar o'qituvchilari uchun juda muhimdir. Bo'lajak fizika o'qituvchilarining maxsus kompetentligini rivojlanganligining mavjud holati, o'qituvchilik kasbi va ta'lim tizimi bo'yicha keng qamrovli tahlilni talab qiladi. Bu mavzu, ayniqsa, pedagogik ta'limda, o'qituvchining kasbiy malakasini oshirish, pedagogik metodologiyani yangilash va zamonaviy bilimlarni o'quvchilarga yetkazish bo'yicha muhim hisoblanadi. O'qituvchining maxsus kompetentligi deganda, uning fizika fanidan chuqur bilimga ega bo'lishi, shuningdek, ta'lim jarayonida o'quvchilarga samarali dars berish uchun zarur pedagogik ko'nikmalarga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Pedagogik ta'limda, o'qituvchining kasbiy malakasini oshirish, pedagogik metodologiyani yangilash va zamonaviy bilimlarni o'quvchilarga yetkazish orqali darslarni tashkil etish kutilgan natijaga erishganligi va rivojlanish hamda imkoniyatlar yaratilganligini ko'rsatishi mumkin.

➤ Fizika o'qituvchilarining maxsus kompetentligi deganda o'qituvchilarning egallagan bilim va malakasi, pedagogik kompetentligi va darslarda pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan iborat. Bo'lajak o'qituvchilar fizika fanining nazariy va amaliy asoslarini yaxshi o'zlashtirishlari kerak. Bu, ayniqsa, fizikaning asosiy qonunlari, formulalari, tajribaviy ishlanmalar va ilmiy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Bunda o'qituvchi bilim va malakaga ega bo'ladi.

Pedagogik kompetentlik bu-fizika o'qituvchilari faqat ilmiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmasdan, balki o'quvchilarga samarali tarzda taqdim etish qobiliyatiga ega bo'lishidir. Ular darslarni qiziqarli, interaktiv va o'quvchilarning ehtiyojlariga mos tarzda o'tkazishlari kerak. Bunda o'qituvchi pedagogik kompetentlikga ega bo'lgan hisoblanadi.

Zamonaviy o'qituvchilar fizika darslarida raqamlı texnologiyalarni, masalan, simulyatsiyalar va taqdimotlarni qo'llashni o'rganishlari kerak. Bu orqali o'quvchilar ilmiy tushunchalarni yaxshiroq anglashlari mumkin. O'qituvchilarning bunday texnologiyalarni darslarda qo'llashlari orqali kreativ kompetentligi rivojlanadi.

➤ Maxsus kompetentlikni rivojlantirishning mavjud holatlariga ta'lim dasturlari va metodika, malaka oshirish va kurslar, ilmiy-tadqiqot faoliyatları kiradi.

O'zbekiston yoki boshqa davlatlardagi fizika o'qituvchilari uchun ta'lif dasturlari va metodikalar doimo yangilanib bormoqda. Biroq, ba'zi hududlarda o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashda hali ham muammolar mavjud.

O'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslari va seminarlari mavjud. Bu kurslar orqali o'qituvchilar pedagogik yondashuvlarni yangilash, yangi bilim va texnologiyalarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Ba'zi o'qituvchilar ilmiy tadqiqotlar olib borish orqali o'z kompetentliklarini oshiradilar. Fizika fanining rivojlanishiga ta'sir etadigan yangi g'oyalar va usullarni ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirishning asosiy omillari

- Innovatsion pedagogik yondashuvlar.
- Muammolarni hal qilishda kreativlik.
- O'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish.

Kreativ kompetentlikning mayjud holatlari

- Pedagogik ta'lif tizimi.
- Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash.
- Amaliy tajriba va metodlar.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirishdagi qiyinchiliklar

- Ta'lif tizimining moslashuvchanligi yetishmasligi.
- Resurslarning yetishmasligi.
- O'qituvchilarni malaka oshirish kurslari.

Kelajakdagagi imkoniyatlar

- Xalqaro tajriba va hamkorlik.
- Texnologiyalarni yanada kengroq qo'llash.
- Pedagogik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash.

O'qituvchilarni innovatsion metodlar, interaktiv yondashuvlar va fizika fanini o'quvchilarga sodda va qiziqarli qilib tushuntirish uchun zamonaviy pedagogik metodlarni joriy va dunyo bo'yicha tajriba almashish, xorijiy ta'lif muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish uchun global tajriba va hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda o'qituvchilarning ijtimoiy statusini oshirishda o'qituvchilarga yuqori malakali o'qituvchilar sifatida e'tibor berish, ularning ijtimoiy va moliyaviy sharoitlarini yaxshilash orqali kutilgan natijalarga erishish va yanada rivojlantirish mumkin.

Xulosa: Bo'lajak fizika o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlanishining mavjud holatini o'rganish, zamonaviy ta'lif tizimining talablariga javob beradigan o'qituvchilarni tayyorlashning muhim jihatlaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativ kompetentlik o'qituvchilarning o'quv jarayonida innovatsion yondashuvlar va metodlar qo'llash, talabalarni faollashtirish, ularning ilmiy va amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shunday bo'lsa-da, mavjud tizimda kreativ kompetentlikni rivojlantirishda bir qancha muammolar mavjud, jumladan, ta'lif dasturlari, o'qitish texnologiyalari va metodologik yondashuvlarning yetarli darajada zamonaga mos emasligi. Tadqiqotning natijalariga ko'ra, bo'lajak fizika o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun ta'lif jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, metodik va amaliy yondashuvlarni takomillashtirish zarur. Buning natijasida, bo'lajak o'qituvchilar o'z faoliyatlarini yanada samarali tashkil etib, talabalarning ijodiy va ilmiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanimagan adabiyotlar

1. Muhammadova D. A. To develop the inventive components of students in physics lessons //Involta" Ilmiy Jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 395-404.
2. Muhammadova D. A. Development of Students' competence in working with information in physics lessons //A German Journal World Bulletin of Social Sciences An International Journal Open Access Peer Reviewed scholarexpress. net ISSN (E). – С. 35-39.
3. Muhammadova D.A., Abdullayeva Z.G. Developing students 'inventive competences in physics classes. // Международный научно образовательный электронный журнал «образование и наука в XXI веке». Выпуск №24 том 4 (2022) 141-145
3. Muhammadova D. A. Fayzieva Kh. A., Teaching of physics in general secondary schools //American of technology and applied sciences journal ISSN (E). – С. 73-74.
4. Muhammadova D. DEVELOPING STUDENTS'INVENTIVE COMPETENCES IN PHYSICS CLASSES //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
5. Axmatovna M. D., Asadovna F. X. FIZIKA DARSLARIDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI //PEDAGOGS. – 2024. – Т. 59. – №. 1. – С. 139-143.
6. Мухаммадова Д. А. Решение некоторых проблем, возникающих при изучении физики //Wire Insights: Journal of Innovation Insights. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 18-21.
7. Axmatovna M. D., Dilmurod o'g'li Z. D. FIZIKA MASALARINI YECHISHDA KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANISH USULLARI //PEDAGOGS. – 2024. – Т. 50. – №. 1. – С. 57-63
8. Axmatovna M. D. et al. FIZIKA DARSLARINI ELEKTRON KO'RGAZMALAR ORQALI SUYUQLIKLARDA ELEKTR TOKI MAVZUSI ASOSIDA TASHKIL ETISH //Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 198-205.
9. Akhmatovna M. D., Aminjonovna R. R. The Importance of Basic Competences in Professional Teaching of Physics in General Secondary Schools //European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 43-47.
10. Saidova R. M., Muhammadova D. A. Development of Quantum Electronics //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 43-46.
11. Akhmatovna M. D., FIZIKA AMALIY MASHG'ULOTLARDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI QO'LLASH // PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI. No. 4, Fevral, 2025. 342-346.
12. Akhmatovna M. D., Olimboyevich A. J. MOLEKULYAR FIZIKA AMALIY MASHG'ULOTLARDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI QO'LLASH // Научный Импульс, 2025. №. 4. 187-194.
13. Muhammadova D. A. RAQAMLI TA'LIM JARAYONI ORQALI MOLEKULYAR FIZIKA O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH. (2024). International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 150-154.
14. Akhmatovna M. D. DEVELOPMENT OF STUDENTS'COMPETENCE IN WORKING WITH INFORMATION IN PHYSICS LESSONS //World Bulletin of Social Sciences. – 2023. – Т. 20. – С. 35-39.

15. Mukhammadova D.A. THE ROLE OF QUANTUM ELECTRONICS IN ALTERNATIVE ENERGY // The American Journal of Applied sciences 3 (01), 2021, 69-78

16. Muhammadova D. A. MOLEKULYAR FIZIKA FANINI O'QITISHDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM VOSITALARDAN FOYDALANISH. // "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 1. 12-16.